

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV

Ikromov Elyor Ibodulloevich

Osiyo xalqaro universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11125236>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'z mazmuniga ko'ra turmush farovonligi va uning sifatini oshirish, zamonaviy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan inson kapitalini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasini ta'minlash bo'yicha xo'jalik faoliyatining turli yo'nalishlarini qamrab oladi.

Kalit so'zlar: Xizmatlar sohasi, menejer, korxonalar, bozor iqtisodiyoti, tashkilot, rahbar mehnati, xizmat ko'rsatish, servis.

A METHODOLOGICAL APPROACH TO EVALUATING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES

Abstract. In this article, the socio-economic development of the service sector is based on its content, the improvement of the well-being and quality of life, the creation of optimal conditions for the development of human capital associated with the formation of modern industries, the relatively high level of the division of labor covers various directions of economic activity.

Key words: Service industry, manager, enterprise, market economy, organization, managerial work, service, service.

МЕТОДИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ

Аннотация. В данной статье социально-экономическое развитие сферы услуг по своему содержанию направлено на повышение благосостояния и качества жизни, создание оптимальных условий для развития человеческого капитала, связанного с формированием современных производств. , относительное распределение рабочей силы охватывает различные направления экономической деятельности, обеспечивая высокий уровень.

Ключевые слова: Сфера услуг, менеджер, предприятие, рыночная экономика, организация, управленческая работа, услуга, услуга.

Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmatlar sohasi iqtisodiy jihatdan sanoat ishlab chiqarishiga qaraganda ancha samaralidir, chunki xizmatlar sohasida boshlang'ich faoliyatni amalga oshirish kamroq mablag'larni talab qilib, kapitalning aylanish tezligi ancha yuqori hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish korxonalarini doimiy tarzda barqaror rivojlanishi hamda xizmat ko'rsatish intensivligini ta'minlashda samaradorlikni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish alohida masala hisoblanadi. Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ular faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligini

oshirish, resurslardan samarali foydalanish, mehnat salohiyati samaradorligini ta'minlash, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish, iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini to'liqroq qondirish bilan bog'liq masalalar soha rivojlanishining muhim muammolari hisoblanadi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda barqarorlikni ta'minlashning muhim omili bo'lib, iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishning uslubiy bazasini takomillashtirish hisoblanadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar samaradorlik tushunchasiga ham nazariy ham amaliy jihatdan yangicha yondashuvni zarurat etmoqda. XX asrning so'nggi yillaridan boshlab xorijiy adabiyotlarda servis (xizmat ko'rsatish) faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini ilmiy jihatdan tadqiq qilishga keng ko'lamda kirishildi.

Ushbu tadqiqotda shu muammolarning echimiga e'tiborimizni qaratmoqchimiz. Xorijiy mamlakatlarda chop qilingan ilmiy ishlarda servis faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari ko'proq resurs-sarf yondashuvi asosida tahlil etilgan. Bunda unumdorlik va samaradorlik ko'rsatkichlari bir xil iqtisodiy kategoriya sifatida yondashilgan. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda servis faoliyati samaradorligini tavsiflashda mehnat unumdorligi ko'rsatkichlaridan foydalanilgan.

Servis faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarini ifodalashda unumdorlik statistikasidan foydalanish ilmiy jihatdan to'g'ri, chunki, birinchidan, samaradorlikni talqin etishda unumdorlik ko'rsatkichlaridan foydalanish zarurati salbiy holatlarni keltirib chiqarmaydi. Ikkinchidan, o'z navbatida servis iqtisodiyoti sharoitida olingan ma'lumotlar tahliliga ko'ra, amaliyotda faoliyat samaradorligini baholashda kengaytirilgan tarzda yondashuvni maqsadga muvofiqligini asoslaydi.

Ma'lumki, iqtisodiy samaradorlik ijtimoiy-iqtisodiy tizim samaradorligining muhim ko'rsatkichi bo'lib, hisoblanadi. Shunday ekan, amaliyotda muayyan darajada iqtisodiy samaradorlik tamoyili qo'llab-quvvatlanadi. Chunki hamma vaqt ham natijalar va xarajatlar kutilgan miqdoriy o'zgarishlarga olib kelmaydi; xarajatlar va natija o'rtasida qat'iy korrelyasion bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun maqsadga muvofiq tarzda samaradorlikni aniqlashning o'zaro bog'liq shakllarini birga qo'shish va maqsadli ehtiyojlar va iqtisodiy vaziyat bilan tahlilni ishlab chiqish kerak.

Maqsad yoki natijada ehtiyojlarni aks ettirish darajasini ifodalovchi ehtiyojlar samaradorligi shuni ko'rsatadiki, agarda personalni baholash tizimining maqsadli yo'naltirilganligida baholash ob'ektlari va sub'ektlar ehtiyojlari hisobga olingan bo'lsa hamda tizim shakllanishi natijasida uning barcha elementlari ehtiyojlari realizatsiya qilinsa, u holda uni samarali deb hisoblash mumkin.

Samaradorlikning boshqa shakli personal ehtiyojlarining qondirilish darajasi tahlilini nazarda tutuvchi ijimoiy samaradorlik hisoblanadi. Baholash tizimi ko'p elementli tarkibni o'zida namoyon etadi, shuning uchun uning samaradorligini tahlil etishda tashkiliy tarkib ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olish zarur: sub'yektlar (rahbarlar) va ob'yektlar (alohida shaxslar), personalni boshqarish tizimi, tashkilotlar, tashqi muhit.

Samaradorlikni baholash tizimini aniqlash turli xil tomondan o'tkazilishi mumkin:

- tadbirkorlik tuzilmalari ehtiyojlari nuqtai nazaridan olingan natija (samara)ni ishlab chiqarish xarajatlari bilan solishtirish muhimligi;

- ishchi-xodimlarni (personalni) boshqarish xizmati nuqtai nazaridan personalni

boshqarishning barcha tizimi shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi, amalga oshirilgan ishlar ko'lamini tavsiflovchi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari muhimligi;

- alohida ishchilar va rahbarlar nuqtai nazaridan shaxsan ahamiyatli maqsad, vazifalar va ehtiyojlarga hamda qo'l ostidagilarni boshqarish usullari va mehnat natijalarini yaxshilash samarasiga erishish muhimligi;

- xizmatlarni bilvosita iste'molchilari nuqtai nazaridan samaradorlik hududiy ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni realizatsiya qilish bo'yicha amalga oshiriladi (mehnat bozori bosimining pasayishi, kasblarga talab va taklifni tartibga solish).

Mazkur holatlarni amalga oshirish darajasi tahlili natijalari bo'yicha samaradorlikni baholash tizimi o'rnatiladi, biroq bu yerda ehtiyojlar ustuvorligini tanlash muammolarini yuzaga kelishi va ularni optimal birikishi kiritilmagan.

V.Fyuks tomonidan, sanoat, qishloq xujaligi va xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlik taqsimoti aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulot bilan chambarchas bog'liq degan fikri o'z tasdig'ini topmoqda. U ta'kidlaydiki, agarda qishloq xo'jaligi hissi daromadlarga talab elastikligi farqi bilan tushuntirilsa, xizmat ko'rsatish sohasidagi o'zgarishlar uchinchi sektor (xizmat ko'rsatish)ni birinchi (qishloq xo'jaligi) va ikkinchi (sanoat) sektorga nisbatan past unumdorlik darajasi bilan ifodalanadi. Bu haqda sanoatda yalpi omilli unumdorlik o'sishi va xizmat ko'rsatish sektorini rivojlanishi o'rtasidagi yuqori korrelyasiya koeffitsiyenti mavjudligidan dalolat beradi.

Umuman xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlik darajasi sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan past darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmokdiki, bugungi kunda axborot texnologiyalari moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan tarmoqlarda samaradorlikni oshishiga olib kelishini hech bir iqtisodchi inkor qilmaydi, ammo uning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ta'siri masalalari ochiq qolmoqda. Bunga bog'liq holda, sanoatga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlikni yuqori ekanligini ko'pchilik xorij iqtisodchilari xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni__ industrial tarmoqlarga nisbatan pastligi bilan ifodalaydilar.

Bir tomondan xizmatlar yuqori texnologiyali kapital va intensiv bilim talab qiladigan tarmoqlarni o'zida mujassamlashtirsa, ikkinchi tomondan, past texnologiyali va ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlarni o'zida mujassamlantiradi.

Shuningdek, xizmat sohasida yuqori malakali va yuqori ish haki oladigan ishchilar ham, past ish haqi oladigan ishchilar ham mehnat qiladi. Bu xol albatta unumdorlik darajasini pastligiga ta'sir qiladi.

«Samaradorlik» tushunchasi nihoyatda keng tushunchadir, u olingan samaraning sarflarga nisbatini aks ettiradi. Samaradorlashtirish – mehnat faoliyatining u yoki bu sohasida yuqoriroq natijalarga erishish va ushbu natijalarning birligiga sarflarni qisqartirish maqsadlarida eng yaxshi echimlarni izlashdir.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish kompleks dasturi mezonining murakkabligi uning maqsadlari va resurslarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar zarurligini taqozo etadi. Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotni zamonaviy tarmoqlari singari rivojlanib borayotgan sohadir. Shunga ko'ra, mazkur sohada faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'yektlari iqtisodiy samaradorligini barcha ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari quyidagi mezonlarda o'z

aksini topadi:

- iste'molchilarning turli qatlamlariga mos xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan taklif etilayotgan xizmatlarni ommabopligini ta'minlash;

- xo'jalik sub'ektlari faoliyatlarining natijadorligini oshirish;

- sarflarning nisbiy darajasini pasaytirish;

- sohada yuqori unumdorlikni ta'minlashga erishish.

Mazkur mezonlar xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlik ko'rsatkichlarini turlicha: baholash miqyosi bo'yicha, resurslardan foydalanish darajasi bo'yicha, ko'rsatkichlarning ahamiyati bo'yicha, ularning qarorlar qabul qilishdagi roli bo'yicha, umumlashtirish darajasi va hokazolar bo'yicha tasniflari uchraydi.

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ikki guruhga: xususiy va umumlashgan ko'rsatkichlarga no'linadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatlarining iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi xususiy ko'rsatkichlarga mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari kiradi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari tizimida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari alohida o'rin egallaydi. Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasi (natural va qiymat ko'rsatkichlari); o'rtacha

mehnat haqi; bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati va mehnatga haq to'lash sur'atining nisbati; mehnat haqining bir so'miga olingan natija ko'rsatkichlari tizimidan foydalanib, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini keng tavsifiga ega bo'lish mumkin.

Inson har tomonlama va uyg'un rivojlanish uchun zamin yaratishni maqsad qilib qo'ygan jamiyatning pirovard ijtimoiy maqsadga erishuvi ijtimoiy samaradorlikni bosh mezoni hisoblanadi.

Ijtimoiy samaradorlikning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi ikkinchi mezoni ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga bilvosita ta'sir qiluvchi iste'mol xarajatlarini kamaytirishdir.

Servis tizimida ijtimoiy samaradorlikni yagona mezon bilan o'lchab bo'lmaydi, chunki soha ijtimoiy samaradorligining mezoni va ko'rsatkichlari bir xil emas. Agar ijtimoiy samaradorlikning mezoni uning mazmuni va vazifasini ifodalasa, ko'rsatkichlari esa samaradorlikni o'lchash va baholash quroli bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy samaradorlikni statik ko'rsatkichlarini quyidagi guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Iste'molchilik talabi qondirilishini tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar;
 2. Xizmat ko'rsatish vaqtini qisqarishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
 3. Mehnat sharoiti va xarakterini yaxshilanishini tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar.
- Iste'molchilar talabini qondirishni tavsiflovchi ko'rsatkichlarga, fikrimizcha quyidagilar

kiradi:

- xizmat ko'rsatiladigan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi;
- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi xizmatlar miqdori;
- ko'rsatiladigan xizmatlar oshib boorish koeffitsienti;
- xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- iste'molchilarning xizmat ko'rsatish korxonalarida sarflaydigan vaqtini kamaytirish

koeffitsienti;

- bir iste'molchiga xizmat ko'rsatish uchun sarflaydigan vaqt;
- bir iste'molchining xizmat ko'rsatish korxonasiga qayta tashrif buyurishi uchun sarflangan vaqt.

- o'rtacha bir marta xizmat ko'rsatish kerak bo'lgan vaqt.

Mehnat sharoiti va mehnat xarakterini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga:

- mehnat jarayonlarini avtomatlashtirish (yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash darajasi);

- xizmat ko'rsatish korxonalarini bino va inshootlarini zamon talablari darajasiga javob berishi;

- xizmat ko'rsatishda ilg'or mehnatni tashkil qilish usullaridan foydalanish darajasi;

- korxonada foydalaniladigan texnologiya, asbob-uskuna va mexanizmlarni ilg'orlik darajasi;

- servis xizmatida band bo'lgan ishchilarning malakasi, ma'lumoti, mutaxassisligining yuqoriligi darajasi;

- soha uchun zarur bo'lgan xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni malakasini oshirishni tashkil qilish darajasi.

Mazkur ko'rsatkichlardan alohida bittasi qo'llanilsa, umumiy natijadorlikni ifodalamaydi. Chunki har bir ko'rsatkich, ijtimoiy samaraning kichik bir yo'nalishinigina xarakterlaydi. Bu ko'rsatkichlar birgalikda qo'llanilsa, xizmat ko'rsatish korxonalarining ijtimoiy samaradorligiga to'liq baho berish mumkin.

Ko'rsatilgan mezon va ko'rsatkichlar orqali xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatlarini baholash, majmuaviy tahlil va strategik rejalashtirishning metodologik asoslarini yaratishda va ularni tatbiq etishda foydalanish mumkin.

REFERENCES

1. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 366-372.
2. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of The Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 333-340.
3. Шадиев, А. Х., & Давронов, И. О. (2020). Роль развития персонала в повышении эффективности услуг и его влиянии на экономику. *Вопросы науки и образования*, (6 (90)), 15-17.
4. Шадиев, А. Х. (2020). Способы улучшения структуры управления в туризме. *Вопросы науки и образования*, (7 (91)), 29-31.

5. Bazarova, M. S., & Khudaiberdiyeva, O. Q. (2022). IMPROVEMENT OF THE MECHANISM OF INNOVATIVE MANAGEMENT OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 464-467).
6. Supievna, B. M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION.
7. Supievna, B. M. (2023). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 381-386.
8. Supiyevna, B. M. (2023). TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA PERSONALNI BOSHQARISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 409-414.
9. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 379-385.
10. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). "РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ" ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
11. Bahodirovich, K. B. (2024). RISK-BASED FINANCIAL INSTRUMENTS: THEORIES AND CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 373-378.
12. Khalilov, B. (2024). ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 747-753.
13. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.
14. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 877-882.
15. Khalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 3(1), 754-758.
16. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 974-978.
17. Nafisa, R. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS OF MODERN MANAGEMENT TRAINING. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 265-269.
18. Raxmonqulova, N. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 340-347.
19. қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
20. Nafisa, R. (2023). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI ORQALI HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 556-560.
21. Raxmonqulova, N. (2024). THE ROLE OF CYBER SECURITY IN THE DIGITAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(1), 111-115.

22. Авезова, Ш. М., & Жумаева, З. К. (2013). МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА. СЕКЦИЯ 1. Економіка і управління національним господарством..... 9, 12.
23. Примова, А. А., Усманова, Н. Ю., & Жумаева, З. К. (2013). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ АГРАРНОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА. In ЕКОНОМІКА І УПРАВЛІННЯ: ПРОБЛЕМИ НАУКИ ТА ПРАКТИКИ (pp. 199-202).
24. Жумаева, З. К., & Тошев, Ф. З. (2017). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. Ученый XXI века, 77.
25. Рузметов, Б. Р., & Жумаева, З. К. (2020). АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 246-250).
26. Жумаева, З. К., & Гафуров, Э. О. (2022). ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ГОСУДАРСТВА. Редакционная коллегия, 358.
27. Jumayeva, Z. (2024). THEORY OF SUPPLY AND DEMAND AND ITS MARKET RELATIONSHIP EFFECT. *Modern Science and Research*, 3(2), 426-432.
28. Jumayeva, Z. (2024). WAYS AND METHODS OF DEVELOPING SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN OUR COUNTRY. *Modern Science and Research*, 3(2), 433-440.
29. Zamira, J. (2024). IQTISODIYOTDA SUNIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 320-325.
30. Bustonovna, D. Z. (2024). CREATIVE THINKING AND ITS APPLICATION IN ECONOMICS.[Data set]. Zenodo.
31. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
32. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 385-390.
33. Abidovna, A. S. (2024). “PERSONNEL MANAGEMENT” AND “HUMAN RESOURCE MANAGEMENT”: HISTORY OF ORIGIN, ESSENCE AND RELATIONSHIP OF CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 336-343.
34. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
35. Hakimovich, T. M. (2024). XODIMLARNI BOSHQARISHDA KPI SAMARADORLIGI TAHLILI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 270-273.
36. Hakimovich, T. M. (2023). BOSHQARUVCHILARNING SAMARADORLIKKA ERISHISHDAGI PROFESSIONALLIGI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 421-425.
37. To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHDA INVESTITSIYALARNING O 'RNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 258-264.
38. Sodiqova, N. (2024). ECONOMIC POLICY IN THE FIELD OF YOUTH EMPLOYMENT: FOREIGN EXPERIENCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 330-339.

39. To'rayevna, S. N. (2024). TADBIRKORLIK SOHASINI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.
40. Sodikova, N. (2024). OTMda "Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari" fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rnini. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-4.
41. Ibodulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.
42. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHİYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
43. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
44. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
45. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQRISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O'RNINI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.
46. Ibodulloyevich, I. E. (2024). RESPUBLIKADA XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.
47. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.
48. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.
49. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
50. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
51. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNINI.
52. Naimova, N. (2024). DIGITALIZATION IN OUR COUNTRY'S EDUCATION SYSTEM AND APPLICATION IN THE DIGITAL WORLD. *Modern Science and Research*, 3(1), 912-917.
53. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.
54. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 326-335.

55. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF DIGITALIZATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES OF THE STATE TAX COMMITTEE. *Modern Science and Research*, 3(2), 635-641.
56. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION SALOHIYATNING AHAMIYATI.
57. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1257-1261.
58. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. *Science and Education*, 4(7), 476-481.
59. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS. *Modern Science and Research*, 3(1), 933-938.